

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UOK: 1(091)(575):929

IS'HOQXON TO'RA IBRAT ILMIY MEROSINING FALSAFIY TAHLILI

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ИСХАКХОНА ТУРА ИБРАТА

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF IS'HOQXON TO'RA IBRAT

Qambarov Abdumutal Axadjonovich 

Farg'ona davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotasiya

Mazkur maqolada buyuk bobokalonimiz, Farg'ona vodiysi jadidchilik harakatining namoyondasi Is'hoqxon to'ra Junaydulloxo'ja o'g'li Ibratning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifatparvarlik, adabiy-badiiy va ilmiy sohalarda qoldirgan boy merosi bilan tanishtirish, ularda ilg'a sunilgan ilg'or g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish masalalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Ibratning pedagogik faoliyatining o'rganilmagan jihatlarini atroflicha yoritib beriladi.

Аннотация

В данной статье анализируется жизненный путь нашего великого предка, лидера движения джадидов Ферганской долины Исхахона Тура Джунайдуллаходжи угли Ибрата, его богатое наследие в общественно-политической, образовательной, литературно-художественной и научной сферах, а также рассматриваются вопросы внедрения в сознание молодежи выдвинутых им прогрессивных идей. В то же время подробно освещаются неизученные аспекты педагогической деятельности Ибрата.

Abstract

This article analyzes the life of our great ancestor, the leader of the Jadid movement of the Fergana Valley, Ishakhon Tura Dzhunaydullakhoja ugli Ibrat, his rich legacy in the socio-political, educational, literary, artistic and scientific spheres, and also examines the issues of introducing the progressive ideas he put forward into the consciousness of young people. At the same time, unexplored aspects of Ibrat's pedagogical activity are covered in detail.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ilm-fan taraqqiyoti, urf-odat, marosim, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifatparvarlik, tasavvuf, ta'lim islohoti, barkamol avlod tarbiyasi, badiiy va ilmiy meros, jadid adabiyoti, yangi taraqqiyot bosqichi.

Ключевые слова: джадидизм, научное развитие, обычай, обряды, культура, духовность, просвещение, суфизм, образовательная реформа, воспитание зрелого поколения, художественное и научное наследие, джадидская литература, новый этап развития.

Key words: Jadidism, scientific development, customs, rituals, culture, spirituality, education, Sufism, educational reform, upbringing of the mature generation, artistic and scientific heritage, Jadid literature, new stage of development.

KIRISH

Mamlakatimiz o'zbek xalqining tarixiy-madaniy, ilmiy va diniy qadriyatlarini qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy va ilmiy merosini to'la o'rganish asosida fuqarolik jamiyati qurishni o'zining strategik maqsadi qilib qo'yimoqda. Ushbu vazifani bajarish yo'llaridan biri – buyuk ajdodlarimiz bo'lgan jadidchi bobolarimizning ilmiy merosini o'rganish, shu asosda madaniy va ma'naviy hayot tarzimizga mos keladigan sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdir. Bunda O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotini rivojlantirish va yoshlar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda ajdodlarimizning diniy hamda dunyoviy qadriyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'tgan asr boshlarida maydonga kelgan jadidchilik harakati namoyondalarining madaniyat, ma'rifat, ma'naviyat, qadriyat, urf-odat, an'analar, e'tiqod kabi yuksak axloq normalari yoshlarni milliy istiqol g'oyalari ruhida tarbiyalashda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda ajdodlarimiz bo'lgan jadid bobolarimizning ilmiy va ma'naviy merosini chuqur o'rganish va undan barkamol avlod ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda oqilona foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ana shunday buyuk jadidlarimizdan biri Is'hoqxon to'ra Junaydulloxo'ja o'g'li Ibratdir (1862-1937).

Uning ma'rifatparvarlik, pedagogik faoliyatining o'rganilmagan jihatlarini ilmiy tahlil qilish, shuningdek, uning ilmiy va diniy qadriyatlarga munosabati masalasi mazkur maqolaning asosini tashkil qiladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyati

FALSAFA

To'ra qo'rg'on tumanida atoqli ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori [1]ni e'lon qilganligi shoir va olimning ilmiy merosini o'rganishni taqazo qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Turkiston jadid ma'rifatparvarlari, xususan, Is'hoqxon to'ra Ibrat merosini o'rganish uchun dunyoning bir qator universitet va ilmiy tadqiqot muassasalari bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, AQShning Kolumbiya, Kaliforniya universitetlari, Tokio xorijiy tadqiqotlar universiteti, Turkiyaning Anqara, shuningdek, Rossiyaning Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Qozon federal universiteti kabi tadqiqot markazlarida olib borilayotgan tadqiqotlarda Ibratning insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari va qarashlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Turkiston jadidlarining ilgari surgan g'oyalarini o'rganish va uning pragmatik jihatlarini hayotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanib, "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab etadi"[2,1-2].

Ibrat haqidagi dastlabki ma'lumot 1982-yilda O'zFAning til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlangan "Asrlar nidosi" to'plamida e'lon qilingan edi. Mustaqillikdan so'ng boshqa jadid namoyandalari qatori Ibratning ilmiy-ijodiy merosiga bo'lgan munosabat ham o'zgardi, ayniqsa U.Dolimovning 1994 yilda nashr etilgan "Is'hoqxon Ibrat"[3] risolasi jadidchilikda Ibratning tutgan o'rni va roli masalasiga bir qator yangiliklar kiritdi. Yurtdoshlarimiz ana shu kitoblar orqali Ibratning kimligi, qanday ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgani, faoliyat turlari, jur'at va jasorati xususida muayyan tasavvurga ega bo'lganlar. U.Dolimov o'z tadqiqotlarini davom ettirib, 2005-yilda Ibratning "Tanlangan asarlar"ini nashr ettirdi. Unda Ibratning 20 dan ortiq she'rlari, o'nga yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari, shuningdek, "Tarixi Farg'ona" va "Mezon uz-zamon" asarlaridan muhim qismlar e'lon qilingan. Ayniqsa, shoir va olim merosini tarixiy aspektida tadqiq etishga bag'ishlangan, Tarix fanlari nomzodi, dotsent K.Vohidova tomonidan yozilgan Is'hoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy asarlari"[4] nomli monografiyasi alohida ahamiyatga egadir.

"Meros" turkumida chop etilgan tarixiy asarlar majmuasining "Ajdodlar yodi" so'zboshisida X.Davronning Ibratga doir fikrlarida, Sh.Yusupovning "Tarix tilga kirganda" kitobining Ibrat to'g'risidagi ilmiy tadqiqotida, R.Shamsutdinovning "Qatag'on qilingan yurtdoshlarni xotirlab" nomli kitoblarida Ibrat faoliyatining ayrim jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek, G'.Karimov o'zbek adabiyoti tarixida Ibrat ilmiy-adabiy merosini, A.Halilbekov Namanganda birinchi tipografiyaning paydo bo'lishini, M.Ibrohimov Is'hoqxon Ibratning To'ra qo'rg'onidagi matbaachilik faoliyatini, K.Vohidova Isohoqxon Junaydulloxo'ja Ibrat va uning ilmiy-tarixiy merosini, Z.Isaqova Isohoqxon To'ra Ibratning falsafiy merosini, S.Abduvohidov jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini va hozirgi zamon bilan aloqadorligini, A.Davlatova Isohoqxon To'ra Ibratning hayoti va ijodiy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish muammolarini, Q.Yo'lchiev Isohoqxon To'ra Ibrat faoliyatining adabiy jihatlarini tadqiq etishgan.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov ta'kidlaganidek, "XIX asrning so'ngi choragida samarali faoliyat ko'rsatgan Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, Is'hoqxon Ibrat, Feruz kabi shoirlar "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti"ning qaldirg'ochlari edilar. Milliy uyg'onish mohiyatan yangi adabiyot edi. Va u mazkur davr uchun xos bo'lgan qizg'in islohotchilik harakati bilan yonma-yon bordi. Shunga ko'ra, bu harakat tariximizda "jadidchilik", adabiyot esa "jadid adabiyoti" nomini oldi"[5,226].

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, jadidchilik harakatining buyuk namoyandalari bo'lgan Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari ma'rifatparvarlar bilan yaqindan aloqada bo'lgan Ibrat, ular boshlagan ishlarni jur'at-jasorat va sabr-toqat bilan davom ettirgani o'sha davr matbuotida e'lon qilingan maqolalarda ko'p marta yoritilganligidan ham bilsa bo'ladi.

NATIJALAR

Ibrat Qo'qondagi Tunqator madrasasini tugatgach, o'z faoliyatini ilg'or maorifchi sifatida ma'rifat tarqatish bilan o'z ishini boshlaydi: Ibrat o'z qishlog'ida maktab ochadi, adabiy-ilmiy hayotda faol ishtirok etadi. Sharq mamlakatlariga safar qilib, so'ng Yevropaning markaziy shaharlarida bo'ladi. Sayohatlari davomida arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini o'rganadi. Umuman, Ibratning til

o'rganishga bo'lgan munosabatini maxsus o'rganish lozim. Ibratshunos olim U.Dolimovning yozishicha, u yuqorida sanab o'tilgan tillardan tashqari yana rus, qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon va arman tillarini ham o'rgangan.

Ibrat o'zining dunyo bo'ylab qilgan safarlari chog'ida turli xalqlar mamlakatlarning tillari va madaniyatini o'rganadi, ilmiy asarlari uchun materiallar yig'adi, binobarin uning safarlari oddiy sayohatlar sirasiga kirmaydi. Masalan, o'sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan 6 tili lug'at – "Lug'ati sittati alsina"[6] va boshqa asarlari mazkur safarlar davomida yig'ilgan boy materiallar asosida katta ehtiyoj samarasi o'laroq yaratilgan.

Lug'atning muhim ahamiyati shundaki, erlik aholi uchun tushunarli bo'lgan arab yozuvida (eski o'zbek yozuvida) yaratilgan. Bu haqda asarning qo'lyozma nusxasi bilan tanishgan gazeta tahririyati xodimlaridan biri quyidagilarni yozgan edi: "... aksar iborat va lug'atlari tas'hih va tag'yir bo'lindi. Hususan, Rusiya lug'atlarini musulmoniya huruflari bilan yozmoq xo'b qiyin va dushvor uchun ul ruscha yozilg'on iboralarni ko'proq tag'yir berildi va mazkur "Sittati alsina" degan janob qozining ixtiro qilgan kitoblari bizning Turkiston viloyatimizdagi sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam yo'q edi"[7].

Olimning ushbu asari, ya'ni, "Lug'ati sittati alsina" XIX asrning 90-yillari o'rtasidayoq, muallifning chel el safaridan qaytib kelishi bilan tugatilgan bo'lsa-da, ayrim sabablarga ko'ra ancha kechikib bo'lsa-da – 1901 yilda Toshkentdagi V.I.Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Is'hoqxon to'ra Ibrat ushbu asarni yaratish uchun ancha vaqt ilmiy ish olib bordi, chet ellarda bo'lib, manba to'pladi. Is'hoqxon Ibrat mazkur asariga material to'plar ekan, jonli tilda ko'p qo'llaniladigan eng faol so'zlarni kiritishga alohida e'tibor beradi.

Ibratning yozuvlar tarixiga bag'ishlangan "Jome' ul-xutut" asari tilshunoslikning murakkab sohalaridan biriga bag'ishlangan bo'lib, unda eng qadimiy piktografik yozuv namunasidan tortib to so'nggi davrning eng mukammal yozuvlarigacha bosib o'tilgan taraqqiyot tarixini yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, olimning mazkur asari katta hajmda – 132 betdan iborat bo'lib, 1912-yilda o'z bosmaxonasi bo'lgan "Matbaai Is'hoqiya"da nashr qilingan.

Is'hoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo'lgan. Asarda piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sankrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg'ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi[8,14]. Is'hoqxon Ibratning jahon yozuvlari tarixiga bag'ishlangan mazkur "Jome' ul-xutut" asarining nashr etilishi o'zbek matbaachiligi, madaniyati tarixida, yozuvlar tarixini o'zganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ibratning "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon uz-zamon" asarlari ma'rifatparvar olimning tarixiy mavzulardagi ilmiy tadqiqot ishlari bo'lib, ularda muallif rostgo'y muarrix, bilimdon geograf sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Muallif bu asarlarni yaratishda rus va Yevropa sharqshunoslari asarlaridan bahramand bo'ladi. Jumladan, V.V.Radlov, V.V.Bartold, G.Vamberi asarlaridan foydalandi.

Ibrat o'zining "Tarixi Farg'ona"[9] asarida shoira, mutafakkir, davlat arbobi Nodirabegimning hayoti va faoliyati haqida ancha qiziqarli, shu bilan birga, o'sha mash'um voqea shohidlari fikr-mulohazalarini keltib o'tadi. Bu asarda muallif Bobur an'analari o'ziga xos tarzda davom ettiradi, bo'lib o'tgan voqealarni ro'y-rost tasvirlash yo'lidan boradi.

MUHOKAMA

Mazkur maqolada yosh avlodni buyuk bobokalonimiz Is'hoqxon to'ra Ibratning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifatparvarlik, adabiy-badiiy hamda ilmiy va diniy qadriyatlar sohalarda qoldirgan boy merosi bilan tanishtirish, ularda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish asosiy maqsad qilib olingan. Is'hoqxon Ibrat nomi haqli ravishda XX asr boshlarida maydonga kelgan jadidchilik harakati namoyondalari ichida alohida o'rin egallaydi. Ibrat amalga oshirgan serqirra faoliyat va uning natijalari u hayotlik chog'laridayoq yuzlab zamondoshlari va ilm-ijod ahli tomonidan o'z vaqtida e'tirof etilgan. Shunday e'tiroflardan birida aytilishicha, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarda kuchli ma'rifat egasi hisoblangan Ibrat o'z davrining yirik mudarrislaridan biri mavqeini egallashi bilan birga, arxitektor, texnik-mexanik, fizik, ximik, shuningdek, telefonist, telegrafist ham edi. Ba'zi sohalarda hatto ixtirolar qilgani ham aytib o'tiladi.

Ibrat ilk o'zbek publiqistlaridan biri bo'lgan. Uning (publiqistika) vujudga kelishi va rivojlanishida shoirning xizmatlari nihoyatda kattadir. "Is'hoqxon Ibrat bu janrda qalam tebratdi va hajm, mazmun, mavzu e'tibori bilan diqqatga sazovor publiqistik maqolalar, she'rlar yaratdi. Uning

FALSAFA

35 ga yaqin maqola va she'rlari "Turkiston viloyati gazetasi" sahifalarida bosildi"[10,32]. Lekin uning she'riy va publiqistik asarlari hali to'liq va chuqur tadqiq etilmagan. Shoir Ibrat o'z she'riy asarlari, xususan g'azallarida mumtoz she'riyat an'analarini davom ettirdi va unga yangi rang va ohanglar ham olib kiradi. Masalan, Ibrat she'rlarida ijtimoiy motivlar kuchli, ayrim misralarida zamon muammolari bosh o'ringa chiqadi. Shuningdek, o'zbek publiqistikasining vujudga kelishi va rivojlanishida Ibratning xizmatlari nihoyatda kattadir.

Isloxon to'ra Ibrat o'z mablag'i hisobidan Orenburgdan 1907 yilda litografik mashinaning sotib olib keltiradi. Uning ishga tushirilishi vodiya-dagina emas, umuman Turkiston hayotida juda katta voqea bo'lgan. O'zbek matbaachiligi Ibratdan boshlangan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ibratning zamondoshlari va hamkasb do'stlariga yuborgan maktublari, jahon madaniyati va adabiyoti namunalari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga bo'lgan munosabati maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishga loyiqdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytilsa, Is'hoqxon Ibratning serqirra faoliyatini tizimli o'rganish hozirgi barkamol avlodni tarbiyalash va ular ma'naviyatini yuksaltirishga samarali xizmat kiladi xamda hozirgi buyuk o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

- barkamol avlodni tabiyalab voyaga etkazishni umrining asosiy mazmuni deb bilgan va shu bunyodkor g'oya uchun jonini fido qilgan buyuk ajdodimiz jadidchi olim Is'hoqxon to'ra Junaydulloxo'ja o'g'li Ibratning ijtimoiy-falsafiy, ma'rifatparvarlik va pedagogik faoliyatini, ma'naviy-axloqiy, ilmiy va diniy merosini to'la o'rganish va tahlil etish;

- fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va yoshlarning ma'naviy-axloqiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyalarini Ibratning ilmiy va diniy hamda ilmiy ommabop asarlari asosida ishlab chiqish va tadqiq etish;

- madaniyat, ma'naviyat, ilmiy va diniy qadriyatlar hamda ijtimoiy ideallar, urf-odatlar, an'analar, e'tiqod, mentalitet, axloq normalari mezon bo'lgan Ibratning ilmiy va diniy hamda ilmiy-ommabop asarlari va hozirgi yosh avlodning ichki ruhiy olami mushtarakliklarini aniqlash;

- zamonaviy yoshlar axloqiy tarbiyasida Ibratning ilmiy va ilmiy-ommabop asarlari o'rni belgilash, shu asosda yoshlarning oqilona turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirish;

- soha mutaxassislari bo'lgan pedagog va tarbiyachilarning barkamol shaxs tarbiyasini Ibratning ilmiy va diniy hamda ilmiy ommabop asarlari asosida shakllantirishdagi innovatsion usullaridan foydalanish masalalariga oid bo'lgan umumta'lim va maxsus ta'limning birligini ta'minlovchi va ularni amaliyotga joriy etuvchi maxsus ilmiy metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

- fuqarolik jamiyati va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarini o'rganish orqali Ibratning ilmiy va diniy hamda ilmiy-ommabop asarlari asosida ijtimoiy fanlarga, jumladan, dinshunoslik, ma'naviyatshunoslik, falsafa yo'nalishlariga, fan va ta'lim istiqboli uchun tegishli tavsiya va takliflarni ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir. Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'ylaymizki, Is'hoqxon To'ra Ibratning inson qadrini ulug'lash, ma'rifatni targ'ib qilish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi progressiv g'oyalari Yangi O'zbekistonni ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat asosida barpo etish strategiyasining ma'naviy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Namagan viloyati To'raqo'rg'on tumanida atoliq ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil qilish to'g'risida"gi 2017-yil 13 apreldagi qarori.
2. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma// Xalq so'zi, 2020-yil 25-yanvar № 19. –B. 1-2
3. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. –Toshkent: Sharq. 1994.
4. Vohidova K.A. Is'hoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi. Namangan. 2018.
5. Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. –Toshkent: Ma'naviyat. 2011. –B. 226
6. Is'hoqxon Ibrat. Lug'ati sittati asina. –Toshkent: Ilmin tipografiyasi. 1901.
7. Turkiston viloyati gazetasi. 1901 yil. № 30-son

8. Is'hoqxon to'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Ma'naviyat. 2020. –B. 14
9. Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. –Toshkent: Kamalak nashriyoti. Meros turkumidan. 266 saxifadan boshlanadi.
10. Is'hoqxon to'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Ma'naviyat. 2020. –B. 32